



## BOLADA AMALIY QOBILYATINING RIVOJLANISHI PSIXODAGNOSTIKASI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim*

*yo`nalishi 1-kurs talabasi*

*Aminova Mahliyo*

*Nishonova Bibsora*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalarda amaliy qobiliyatlarning rivojlanish xususiyatlari va ularni psixodiagnostika orqali aniqlash usullari yoritilgan. Amaliy qobiliyat-bu bolaning atrof-muhit bilan faol o`zaro ta'siri davomida shakllanadigan va real vazifalarni bajarishda namoyon bo`ladigan psixik xususiyatlari. Taqtimotda turli yoshdagi bolalarda kuzatiladigan amaliy qobiliyatlarning rivojlanish darajalari ularni o`lchash mezonlari va diagnostik vositalari tahlil qilingan. Shuningdek bu qobiliyatlari rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ijtimoiy va psixologik muhitning roli muhokama etilgan, maqolada maktabgacha va muktab yoshidagi bolalarda qo'llanilishi mumkin bo`lgan psixodiagnostik metodlar va ularning samaradorligi ko`rib chiqilgan.

**Kalit so`zlar.** Amaliy qobiliyat, rivojlanish, psixodiagnostika, bola psixologiyasi, psixik rivojlanish, metodika, ijtimoiy omillar.

**Bolalar psixologiyasi** – psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiyligi va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko`pincha „Yosh psixologiyasi“ deb ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va hokazo) paydo bo`lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o`yinlar, o`qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o`rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiyligi psixologiyada



ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang, kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi. Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o'zi bir vaqtida turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinci holatda (longityud) esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiyligini kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish. Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lмаган holatlar o'rnatiladi. Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati – bu ko'zgudagi sizning aksingiz. Bolalar psixologiyasi 19-asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqsa boshladi. U pedagogika psixologiyasi, pedagogika, oliy asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'langandir. Uning ma'lumot va xulosalari yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiyligini psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda Bolalar psixologiyasi masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bolalar psixologiyasi bir qancha fanlar bilan uzviy aloqada bo'lib,bu fanlar qo'lga kiritayotgan faktlardan,qonuniyatlar hamda kashfiyotlardan keng foydalanadi.Bolalar psixologiyasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi,yo'l-yo'riqlari va vazifalariga doir fikrlarni pedagogika fanidan oladi.Lekin shuning bilan birga bolalar psixologiyasi pedagogika faniga ham yaqindan yordam beradi.Bolalar psixologiyasi bir qator biologik fanlar bilan,birinchi navbatda,bolalar anatomiyasini hamda fiziologiyasi bilan bo'g'liqdir.Bu fanlar bolaning yoshi ulg'ayishi bilan yuzaga keladigan anatomik va fiziologik o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi hamda psixik taraqqiyot yo'lini ilmiy tushunishga yordam beradi.Bolalar psixologiyasi bolalar gigienasi,bolalardagi kasalliklarni o'rganuvchi pediatriya va bolalar psixopatalogiyasi bilan ham bog'liqdir.Bu fanlar bolalar psixik



tarqaqqiyotining normal borayotganligini chuqurroq bilish va normal taraqqiyotdan burilish sabablarini anglash imkoniyatini beradi.Bolalar psixologiyasi bolalar adabiyoti bilan ham ma'lum darajada aloqadordir. Bolalar psixologiyasi bolalarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishda tushuntirishda bolalar adabiyotidan, xususan, avtobiografik asarlardan keng foydalanadi. Bolalar psixik hayotiga oid qonuniyatlarini o'rganuvchi bolalar psixologiyasi ham dialektik materialism metodologiyasiga asoslanadi va boshqa hodisalarga nisbatan o'rganilishi ancha qiyin bo'lgan nozik psixologik hodisalarning asli mohiyatiga ilmiy asosda bilib olishi mumkin bo'lgan bir narsa deb qaraydi.Dialektik materializm prinsiplariga asoslangan bolalar psixologiyasi murakkab aks ettirishdan iborat bo'lgan sub'ektiv hodisalarni ularning ob'ektiv sabablari bilan birgalikda,ya'ni tirik materiyaning eng murakkab turi bo'lgan miyadagi fiziologik proseslar hamda kishining butun psixikasi,ongida aks etadigan jamiyatning moddiy negizi,undagi aniq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda o'rganadi.Bolalar psixologiyasi murakkab psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganishda determinism,ya'ni narsa va hodisalarning sababiy bog'liqligi prinsipiiga asoslanadi. Bolalar psixologiyasi fani o'qituvchisiga barcha pedagoglarga quyiladigan umumiyl talablardan tashqari yana quyidagi talablar quyiladi.

1. Umumiy va bolalar psixologiyasidan tashkari psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslaxat, maxsus psixologiya buyicha bilimga ega bulish.
2. Maktabgacha tarbiya muassasi tarbiyachisining ish faoliyatiga xos xususiyatlarni yaxshi bilish.
3. Bolalar psixik tarakkiyoti muammolari yuzasidan mustaqil tadkikotlar o'tkaza olish va bu jarayonga talabalarni jalb eta bilish.
4. Muntazam ravishda ilg'or tarbiyachi-murabbiylarning pedagogik tajribasini o'rganib borish va targib kilish. Bolalar psixologiyasi fani o'qituvchisi pedagog sifatida quyidagi qobiliyatlarga ega bulishi kerak. 1.Didaktik qobiliyat. – o'quv materiealini aniq va ravshan tushuntira bilish.



2. Akademek qobiliyatlar – uz fanidan tashqari boshka sohalar buyicha ham keng bilimga ega bulish.

3. Pertseptiv kobiliyatlar – talaba ichki dunyosiga kira bilish, kuzatuvchan bulish.

4. Nutkiy qobiliyatlar – uz fikrini, xis– uygusini nutk yordamida ifodalab bera olish.

5. Tashkilotchilikchilik kobiliyati - talabalr jamasini uyishtira olish, jipslashtira olish, ishini tashkil etish.

6. Avtoritar kobiliyatlar – talabalarga bevosita emottsalirodaviy ta'sir kursata bilish.

9. dikkatni taksimlash olish kobiliyati – bir vaktning uzida diqqatni bir qancha faoliyatga talabaga qarata olish.

Bo'lajak o'qituvchilarda talabalik yillaridanok darsni qanday uslubda o'tishi xaqida tasavvurlar paydo buladi. Kanday uslubda o'tishni xar qaysi pedagog individual tanlaydi. Dars utish uslubida pedagogikaning uz ishiga va talabalarga bulgan munosabati aks etadi. Xozirgi kunda psixologiyada boshqarish, shu jumladan darsjarayonini tashkil etish va boshkarishning ish uslubi ajratiladi. Tarbiyachi bog'chada mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida 6 yoshli Gulnora (K.) ismli qizcha xulq-atvoridagi boshqalarnikidan farq qiluvchi ayrim xususiyatlarni payqab qoladi. Qiz mashg'ulotlarda tez-tez chalg'ib ketadi, ko'pincha parishonxotir. Tarbiyachi topshirig'ini bir zumda bajarmaydi. Bir topshiriqni tashlab, ikkirichisiga tez o'tib ketadi, hech bir ishni oxiriga etkazmaydi. O'quv topshiriqlari bajarilmaydigan boshqa vaqtarda u o'zgalardan farq qilmaydi. Qizning diqqat, tafakkur hissiy jarayonlarini organish uchun bog'chada tadqiqot o'tkazildi. Tekshiruv natijalari qizning psixik jaravonlarida hech qanday psixik o'zgarish yo'qligini tasdiqlaydi. Topshiriqlarai bajarish vaqtida charchash, faol diqqat darajasining pastligi kuzatildi. Lekin bu xususiyatlar sinaluvchi diqqalini ishning boshqa shakllariga ko'chirish bilan osonlikcha bartaraf otildi. Shunday qilib, eksperimental psixologik tadqiqot qizning psixik tnniqqiyoti normada ekanligini, psixik jarayonlaming o'zgarib turishi esa ba'zi millatning ta'siri oqibatida ro'y berishini ko'rsatdi. Psixodiagnostik tadqiqotlar



tarbiyachiga guruhning, har bir shaxsning u yoki bu psixik funksiyalari rivojlariish prinsiplarini hisobga olgan holda o ‘quv-taibiya jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Sensomotor ta’sirlanish va diqqatni o ‘rganish uchun metodikalar lnsionning sensomotor sohasi asosiy new jarayonlari harakatchanligi tipini, ixtiyoriy diqqat darajasini, ishga qobiliyatlilik sur’atini xarakteriyadi. Ma’tumki, bola hayotining dastlabki yillarida jismoniy va ruhiy sifatlarining rivojlanishida sensomotor faollik bosh miya faoliyatida shartli reflektor aloqalaming mustahkamlanishiga imkon beradi (Ya.P.Fru:mkin, S.M.Livsluts, 1979). Ular shu bilan birga temperament, iroda, hissiyot xususiyatlarining hamda bilish psixik jarayonlarining rivojlarishiga yordam beradi (E.A.Golubeva, 1980; E.B.AYurova, 1986).

## ADABIYOTLAR

1. Абрамова Г.С. Возрастная психология М.: 2001
2. Davletshin M.G. va boshqalar ‘Yosh davrlar va pedagogik psixologiya” .T.: TDPU 2004
3. Dusirmxamedova SH.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X., Karimova SH.T , Aliinbaeva SH.T. Yosh davrlaii va pedagogik psixologiya. - T.: Fan va texnologjya mark;«ining bosmoxonasi.-2013. -344 b.
4. Кайл Р. Детская психология: Тайны психики ребенка. -СПб.: прaim - ЕВРОЗНАК.2002.-416C.
5. Лесгафт П.Ф, “Возрастная и педагогическая психология” М.: 1991
6. Немов Ф.С. Психология..-М.: ВЛАДОС. Кн.2. Психология образования. 2003. -608 с.
7. Nishanova Z.T., Alimova G.K. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qiti:»h metodikasi”. Г.: 2005
8. Соколова У .Э. “Психология развития человека” М.:2001
9. Шаграева О.А. Детская психология.: Теоретический и практический курс. - М.: ВЛАДОС. 2001.-368 с.
10. GozievE.G “Ontogenet psixologiyasi”. Т.: Ношир. 2010
11. Юнова НИ . “Психологическая готовность ребенка к обучению в школе” М.:2003